



LUG'AT TARKIBIDAGI SO'ZLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Sh.Matjanov

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'zbek tili
kafedrasi assistent o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilidagi faol va nafaol so'zlar, istorizmlar, arxaizmlar, o'zlashgan so'zlar hamda ba'zi bir neologizm so'zlarning uslubiy xususiyatlari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Faol, nafaol, leksik-semantik arxaizmlar, gardun, orden, istorizmlar, chachvon, bakovul, yasovul, neologizmlar, novator, lizing, subsidiya, reyting, biznes.

Har qanday tilning leksika doimiy rivojlanishda bo'lib, unda davr bilan bog'liq yangi so'zlar paydo bo'ladi, iste'moldagi ba'zi so'zlar asta-sekin eskirib boradi. Ammo eskilik ottenkasiga ega bo'lgan so'zlar tilga birdan yo'qolib ketmasdan, ancha vaqtga qadar ishlatiladi. Shunga ko'ra umumxalq tili lug'at boyligini ikki katta guruhga ajratish mumkin: faol so'zlar va nafaol so'zlar.

Faol so'zlar guruhiga ma'nosi shu tilda gaplashuvi barcha kishilarga tushunarli va kundalik turmushda qo'llanishi odat bo'lib qolgan so'zlar kiradi. Bu guruhdagi so'zlar eskilik bo'yog'iga ega bo'lmaydi.

Nafaol so'zlar guruhiga esa eskilik bo'yog'i aniq bilinib turadigan va ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan so'zlar kiradi. Bunday so'zlar kundalik muloqotda kam ishlatiladi. Bunday so'zlarning o'zi ikki guruhga bo'linadi: eskirib qolgan so'zlar (arxaizmlar, istorizmlar) va yangi so'zlar (neologizmlar).

Tilning hozirgi davri uchun eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar arxaizm yoki arxaik so'zlar deb yuritiladi. So'z ma'nosining eskirishi va turli sabablarga ko'ra uning o'rnini boshqa so'z olishi natijasida arxaizm paydo bo'ladi. Masalan: firqa (partiya), avaxta (qamoqxona), musofirxona (mehmonxona) kabilar o'zbek tilida bugungi kun nuqtayi nazaridan eskirgan so'zlar bo'lib, ularning o'rnini yangi so'zlar egallagan.

Arxaiklashish hodisaining ko'rinishlari:

a) so'z butun holda, yaxlitligicha arxaiklashadi. Bu leksik arxaizm deyiladi: gardun (osmon), dovot (siyohdon); b) so'zning ma'nolaridan biri arxiaklashadi. Bu semantik arxaizm deyiladi. Masalan: nishon so'zining «orden» ma'nosi arxiaklashgan, u belgi, alomat, iz, asar ma'nolarida keng qo'llaniladi (nishon qo'ymoq, nishonga olmoq; undan hech nishon qolmadi). Shuningdek, g'animat so'zining «qo'lga tushirilgan narsa, o'lja» ma'nolari arxiaklashgan, u «qulay, tuzuk, yaxshi» kabi ma'nolarida faol ishlatilgan (g'animat vaqt). Yana: daha so'zining «shaharlarning bir qismi, tumani» ma'nosi (daha boshlig'i) arxiaklashgan, bu so'z



«ipak qurti yoshi» ma'nosida kasb-hunar leksikasida qo'llaniladi (Qurtlar so'nggi dahaga kirdi).

Ma'lumki, arxaizmlardan real tarixiy voqea-hodisalarni tasvirlashda uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Ular turli janrlardagi badiiy asarlarda, felyetonlarda, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy uslubda yozilgan tanqidiy maqolalarda nutqqa kinoya, piching, mazax-masxara va hajv ottenkasini berish maqsadida ham ishlatiladi.

Eskirib qolgan so'zlarga istorizmlar ham kiradi. Bugungi hayotimizda uchramaydigan, faqat tarixiy narsa yoki voqea-hodisalarning nomini bildiruvchi so'zlar istorizmlar deyiladi. Masalan: *darg'a*, *omoch*, *chachvon*, *bakovul*, *yasovul*, *qozi*, *vasiqa*, *gumashta*, *meshkop*, *jig'ador* kabi.

Istorizmlar – o'zi anglatgan narsa va hodisalarning yagona atamasi. Shuning uchun hozirgi tilda uning o'rnini bosa oluvchi sinonimlari bo'lmaydi. Masalan: Hamzaning Bitsin endi eski turmush, ul kulohu jandalar misrasidagi *kuloh*, *janda* so'zlari kabi. Istorizmlar shu xususiyati bilan arxaizmlardan keskin farq qiladi (eskirgan so'zlar iborasi bularning ikkalasi uchun umumiy nomdir).

Istorizmlar, asosan, o'tmish voqeligini aks ettirishda ishlatiladi. Lekin *vasiqasi yo'q (odam)*, *o'ziga xon*, *o'ziga bek* kabi xalq iboralari tarkibidagi tarixiy so'zlar (*vasiqa*, *xon*, *bek*) o'tmishdagi narsa va hodisalarning nomlari bo'lib, ularning ma'nolari iboradan anglashiladigan majoziy singib ketgan. Bunday o'rinlarda, ba'zan umumxalq uchun yot bo'lgan tarixiy so'zlarni umumiste'moldagi so'zlarga o'xshatib olish hodisasi («xalq etimologiyasi» hodisasi) ham uchraydi. Masalan: *San solor*, *man solor*, *otga bedani kim solor* iborasi xalq etimologiyasiga uchrab *san solor*, *man solor*, *otga bedanani kim solor* shaklini olgan. Bu yerda *solor* tarixiy so'zi umumnutqdagi *solor* (*solmoq*) fe'liga o'xshatib, tenglashtirib qo'yilgan. Tilda sansolarlik so'zining shakllanishi ham yuqoridagi ibora ta'sirida voqe bo'lgan: *san solor* – *sansolarlik*.

Istorizmlardan tarixchilar, olim va yozuvchilar tarixiy voqea va hodisalarning real tasvirini berish, badiiy asarga tarixiy ruh berish uchun foydalanadilar. Masalan: *Qorani oqlash hech bir podshoning yosasiga sig'maydi (O.)* gapida *yosa* tarixiy so'z bo'lib, «qonun, tartib» ma'nolarini bildiradi. *Bozorni aylanib yuradigan poyaki voqeadan boshdan-oyoq xabardor ekan (A.Q.)* Ilgarigi vaqtda bozor va rastalarda chilim chektirib yuruvchi kishini *poyaki* deb ataganlar.

Adabiy til doimo yangi so'zlar – neologizmlar bilan ham boyib boradi. Neologizmlar ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatda bo'ladigan o'zgarishlar, fan-texnika yangiliklari, san'at, adabiyot va publitsistikadagi yangicha tushunchalar, umuman, jamiyatning, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo'lgan so'zlardir:



novator, lizing, subsidiya, reyting, biznes, tadbirkor, ishbilarmon, fermer, aksiya va boshqalar.

Tilda neologizmlar har xil yo'llar bilan paydo bo'ladi:

1. Tilning muqum lug'at tarkibi va grammatik qonun-qoidalari asosida yangi so'z yasash yo'li bilan. Bunda so'z yaxlitligicha neologizm bo'ladi: *ishbilarmon* (yangi usulda ish olib boruvchi) *payvandchi* (metall ulovchi), *cho'lquvar* (bo'z yerlarni o'zlashtiruvchi ma'nosida).

2. Tildagi mavjud so'zlarning leksik ma'nolaridan birini yangi ma'noda qo'llash yo'li bilan. Masalan: *cho'mich* so'zining «*kovsh*» ma'nosi kabi: Ekskavatorning cho'michi shu uyumlardan osha yangi tuproqlarni irg'itdi.

3. Boshqa tillardan so'z qabul qilish yo'li bilan. Boshqa tildan so'zlar ikki xil usul bilan olinadi:

a) aynan qabul qilinadi: kosmonavt, samolyot, trenajor, litsey;

b) kalkalash yo'li bilan olinadi: o'zibo'larchilik (самотёк), yer yo'ldoshi (спутник земли), odimlovchi ekskavator (шагающий экскаватор), ko'targich kran (подъемный кран) kabi. Kalkalashni oddiy tarjimadan farqlash kerak. Kalkalashda boshqa tildan o'zlashtiruvchi tilga taqlidan nusxa olish asosida neologizm yaratilsa, oddiy tarjimada esa boshqa til so'zi avvaldan mavjud bo'lgan o'z so'zlar bilan beriladi.

Nutqda neologizmning uslubiy vazifasi juda rang-barangdir. Ilmiy-texnik, rasmiy adabiyotlardagi umumtilga xos neologizmlar asosan, nominativ funksiyani bajaradi, badiiy adabiyotda esa muayyan uslubiy maqsadda qo'llaniladi. Bu, birinchi navbatda, katta ta'sir va tasvir kuchiga ega bo'lgan individual nutq neologizmlariga taalluqlidir. Bunga yozuvchilar ijod qilgan yangi so'zlar misol bo'ladi.

G'afur G'ulom so'z ijodchiligida so'zlarni qo'shish yo'li bilan yaratgan mehnat yaratgan mehnatobod, urushtalab, insonzod, xushaxloq kabi neologizmlar o'zining ifodaviyligi bilan ajralib turadi. Shoir yana -dosh qo'shimchasi yordamida eldosh, yerdosh, kurashdosh, qalamdosh kabi so'zlarni ijod qiladi.

Yozuvchilar yaratgan individual nutq neologizmlari ba'zan satirik tasvir vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Masalan, quyidagi misollarda rasmiy-idoraviy nutqqa oid shablon so'zlar: ocheredchilik, oshxo'rchilik matnga yumoristik ruh kiritgan: *Ruyhatdagi mana shu kamchiliklar tuzatilsa, bu narsa hozirgi ocheredchiligimizda ijobiy rol o'ynashi, xaridorlarimiz orasida tarbiyaviy ish olib borishda alohida ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lsa kerak deb o'ylamiz. (A.Qahhor).*



Tilning boshqa tillardan olingan soʻzlar hisobiga boyishi juda qadimiy hodisadir. Buning sababi xalqlar oʻrtasida qadimdan ijtimoiy-siyosiy munosabat, madaniy aloqa va hamkorlikning mavjudligidir.

Oʻzbek tili lugʻatiga ilgaridan oʻrnashib olgan tojikcha soʻzlar aniq narsa va predmetlarni ifodalaydi: *Daraxt, qogʻoz, sartarosh, sozanda, miskar, gʻoʻzapoya, sholipoya, paxtakor, dasht, devor, daryo, poytaxt, maydon, meva, mevazor, shudgor* va boshqalar.

Oʻzbek tilidagi arabcha soʻzlar maʼno jihatidan koʻproq mavhum soʻzlarga ega: *hol, haqiqat, hurmat, imkoniyat, adabiy, faxriy, maʼnaviy ehtiyoj, istiqbol, daraja, ahamiyat, maʼsuliyat, sharaf, iroda. taʼlim* kabi.

Oʻzbek tilining tarixiy taraqqiyotida rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlarning asosiy oʻrinni egallaydi. Hozirgi oʻzbek tilida rus tilidan oʻzlashayotgan soʻzlar oʻzbek adabiy tilida juda keng ishlatilmoqda. Masalan: *stol, samovar, ruchka, budilnik, vilka, gudok, duxovka, pechka, sud, razvedka, razyezd, salut, seyalka, stanok, ukol*.

Bulardan tashqari oʻzbek tiliga rus tili orqali yevropa xalqlari tillaridan ham juda koʻp soʻzlar oʻzlashtirildi. Bunday baynalminal soʻzlarga grekcha va lotincha *logika, grammatika, plenum, biologiya, invalid, dekan. Konus, drama, iyul, avgust, xor, teorema*; inglizcha *sport, tennis, rels, voleybol, futbol, miting*; nemischa *galstuk, buxgalter, fartuk, slesar stul* kabi soʻzlar misol boʻladi.

Boshqa tillardan oʻzlashtirilgan, xalq ommasi oʻrtasida keng isteʼmolda boʻlgan bunday soʻzlar oʻzbek tili lugʻatidan mustahkam oʻrin olgan.

Boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirishning usul va yoʻllari, ularning tillariga kirib qolish sabablari va singish darajalari kabi masalalar leksikologiyasida oʻrganiladi. Leksik stilistika esa oʻzi mansub boʻlgan tilga xos belgisini saqlab qolgan soʻzlarning ishlatilish shart-sharoitlari va uslubiy vazifalarini tekshiradi.

Chet til elementlari va oʻzlashtirma soʻzlar, ayniqsa, badiiy adabiyotda uslubiy maqsadda juda keng qoʻllanadi. Badiiy nutqda chet til leksikasidan koʻpincha yozuvchilar obraz va personajlar nutqini individuallashtirishda foydalanadilar.

Hozirgi oʻzbek tilida oʻzlashma qatlamga oid soʻzlar miqdori kun sayin ortib bormoqda. Oʻzbek tili lugʻatida iqtisodiy-siyosiy va madniy hayotimizga oid, fan va texnikaga doir boʻlgan murakkab tushuncha va tasavvurlarni ifoda etuvchi bunday qatlam oʻz mavqeyini yanada kuchaytirmoqda.



Adabiyotlar:

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –Toshkent: Fan, 1985.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari.–Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Begmatov.E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi, adabiy norma tiplari. 1-qism, -Toshkent: Fan, 1997.
4. Yo'ldoshev.B. Badiiy nutq stilistikasi. –Samarqand, 1982.
5. Sapayev.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent, 2009.
6. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.

